

QADIMGI INGLIZ TILIDAGI “FEORRIAN, (GE)WITAN” YO‘NALISH HARAKATI FE‘LLARI SEMANTIK TARAQQIYOTI

S. Mardonova¹

Annotatsiya:

Ushbu maqola oldiga qo‘yilgan maqsadi zamonaviy ingliz tilidagi ba‘zi yurish harakati fe‘llarining tarixiy taraqqiyoti davomida leksik va semantik o‘zgaruvchanligi, ma‘no jihatdan boyiganligi va bu o‘zgarishlarning sabablarini aniqlashdan iborat. Asosiy e‘tibor qadimgi ingliz tili davrida ishlatilgan “feorrian, (ge)witan” fe‘llarining leksik-semantik taraqqiyoti va ularning rivojlanish omillarini belgilashga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: harakat, semantika, leksika, fe‘l, sof, yo‘nalish

doi: <https://doi.org/10.2024/yr2r9r77>

Kirish

Holat hamda neytral harakat fe‘llariga qaraganda yo‘nalish harakat fe‘llari kamchilikni tashkil etadi. Ammo ular kamchilikni tashkil etsada qadimgi ingliz tilida tez-tez qo‘llanilgan. Shuning uchun yo‘nalish harakat fe‘llari semantik taraqqiyotiga hech qanday chegara qo‘yilmagan. Qadimgi ingliz tilida yo‘nalish harakat fe‘llari kodlangan ma‘noga ega bo‘lib ularning sof ma‘nosi kamdan kam hollarda uchragan. Masalan qadimgi “scipian” “to take ship” ya‘ni “kemaga chiqish” ma‘nosidagi yo‘nalish harakat fe‘li “kemaning ichiga qarab harakatlanish” aniqrog‘i “ichkariga harakat” kabi ma‘nolarni asoslagan ya‘ni faqatgina kemaga nisbatan bajarilayotgan harakat ma‘nosini ifodalagan. Qadimgi ingliz tilida yo‘nalish harakat ma‘nosida kelgan fe‘llar ko‘plab qo‘shimcha ma‘nolarga ega bo‘lgan va ushbu fe‘llar sof yo‘nalish harakat sifatida ishlatilmagan. Ushbu qarashlar juda ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘lgan va natijada qadimgi ingliz tilidagi sof yo‘nalish harakat fe‘llari inventarizatsiyaga uchragan va mazkur fe‘llar qadimgi Lotin tili yoki Fransuz tilidan o‘zlashtirilgan degan xulosaga kelingan. Yuqorida keltirilgan fikrlarning isbotini maqolaning asosiy qismida keltirilgan misollar bilan ko‘rsatib berishga harakat qilamiz.

Asosiy qism

Qadimgi ingliz tilidagi “feorrian” yo‘nalish harakat fe‘li “uzoqlarga ketish, ketish” ma‘nosida ishlatilgan. Ushbu fe‘l o‘zi bilan qo‘shimcha ma‘noni ifodalab kelgan ya‘ni “feor” old qo‘shimchasi orqali “uzoq” ma‘nosini anglatgan. Qadimgi lotin tilidan tarjima qilinganda “*longe fugiunt*” ya‘ni “uzoqlarga ketishadi va qochib ketishadi” ma‘nolarini ifodalab kelgan. Shunday qilib ushbu fe‘l o‘zida “uzoqlarga” kabi ma‘noni mujassamlashtirgan. Masalan:

1 misol:

a) gif hi hwylcne man on ðam landum ongitað oððe him hwylc folligende bið, þonne **feorriað** hi & fleoð.

a) gigantlar bu yurtda biror kishini sezsalor yoki ko‘rsalar yoki kimdir ularni kuzatishayotganini sezishsa, shunday holatda ular uzoqlarga ketishadi.

¹ Mardonova Sitara Mardonovna, SamDCHTI o‘qituvchisi

“Uzoq” ma’nosidagi qo‘shimcha komponent dan tashqari “*feorrian*” fe’li sof yo‘nalish harakat fe’liga mos keladi. Bundan tashqari qadimgi ingliz tilidagi “*feorrian*” “jilo, jilolanish” kabi ma’nolarni ham ifodalagan. Qadimgi lotin tilining “*elongare*” fe’lidan kelib chiqqan. Demak bundan ko‘rinib turibdiki, qadimgi lotin tilidan kelib chiqqan “*elongare*” fe’li qadimgi ingliz tili “*feorrian*” fe’li bilan morfologik jihatdan o‘xshash bo‘lib bunda “*longus*” “long, far” va qadimgi ingliz tili “*feor*” “*far*” ma’nolarini ifodalagan. Talmining ta’kidlashicha, yuqorida keltirilgan misollar morfologik tahlillar hamda har bir bo‘g‘inning ma’nosini yetkazib berish uchun tadbiiq etilgan¹.

Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan (for)lāetan fe’li.

Qadimgi (for)lāetan fe’li ko‘pincha “to leave” “tark etish” ma’nosida ishlatilgan. “*Fæder, modor, þæt child, hine*” fe’llari kabi nafaqat joylarni balki insonlarni tark etish ma’nolarida ham ishlatilgan (2 misol a-c).

2 misol:

a) for ðan **forlæt** se man fæder & modor, & geðeot hine to his wife;

a) o‘g‘il bolalar ota – onasini tark etib alohida o‘z oilasi bilan yashaydi;

b) þa cyrdon heo ham mid þam & þæt child **forlæten** æt þam temple mid þam oðre femnen;

b) Qolgan ayollar ketishdi va farzandlarini qal’ada boshqa ayollar bilan qoldirib ketishdi;

c) he wearð þa gebunden and to ðam lande gelæd, and **forleton** hine þær to anum treowe huxlice gebundenne;

c) Uni kishanlab quruqlikka olib borishdi va sharmandalarcha daraxtga bog‘lab tashlab ketishdi.

Narsa yoki shaxsga nisbatan “**forlāetan**” fe’lining ma’nolari orasida “orqada qoldirish”, “yaqinda qoldirish, e’tiborsizlik, qarovsiz qoldirmoq”, “tashlab ketmoq, butunlay tark etmoq, aloqani uzmoq” kabi ma’nolari ham ishlatilgan. Semantik ta’sirlanishda manba va maqsad yoki devor va shahar ma’nolarida keltirilgan (3 misol a,b,c).

3 misol:

a) hig þa **forlættan** þone wall & heora burh, & flugan onwæg.

a) Keyin ular devor va shaharlarini tashlab, qochib ketishdi.

b) ðes ilces geares com se abbot Heanri of Angeli æfter ÆEsterne to Burch & seide þet he hæfde **forlæten** þone mynstre mid ealle.

b) xuddi shu yili Pasxadan keyin abbat Genri Anjeli keldi Peterboro va u bu monastirni tark etganini aytdi.

c) ac ic wille nu þurh Godes wissunge þa **forlætenan** mynstru on minum anwealde gehwær mid munecum gesettan & eac mid mynecenum & Godes lof geedniwian ðe ær wæs forlæten.

c) Ammo endi, Xudoning ko‘rsatmasi bilan, men tashlandiq monastirlarni to‘ldirmoqchiman mening hududimdagi hamma joyda rohiblar va rohibalar bilan birga men va ilgari e’tibordan chetda qolgan Allohga hamd aytinglar.

Yuqorida keltirilgan misollardan kelib chiqib, (for)lāetan fe’li qaratqich kelishigida bironbir insonni tark etish ma’nosi bilan ifodalangan.

Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan (ge)witan fe’li.

Qadimgi ingliz tili lug‘atida ushbu fe’l “to go, depart, go out” “ketmoq, chiqmoq” ma’nolarini ifodalagan. Ba’zibir manbalarda ushbu fe’l “to turn one’s

¹ Talmy, L. Semantics and the syntax of motion // Syntax and semantics vol. 4. New York., 1975. – P 195-205.

eyes in any direction with the intention of taking that direction, to set out towards” ya’ni “biron bir yo’nalishni ko’zga olib yo’lga chiqish, ko’zni istalgan tomonga burish” ma’nolarini ifodalagan. Ba’zibir olimlarning fikricha ushbu fe’l “yo’lga tushmoq, ketmoq” ma’nolarini ham bildirgan (Ogura 2000). Hamda Wemanning fikricha ushbu fe’l “bir joydan uzoqlashish” kabi ma’nolarga ega bo’lgan. Bu shuni ko’rsatadiki “(ge)witan” fe’li nafaqat yo’nalish harakat balki umuman harakat fe’lini tasvirlaydi.

4. misol:

a) and se engel him gewat fram.

b) oþ þæt þæt scamlease wif geswænced aweg gewat fram þam ehþyrle his cytan.

c) and se fugol sona aweg gewat .

4 c va b misollarida qo’chimchalar predloglardan farq qilgan. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan “onweggewiteness” fe’li keyingi misollarda ‘to depart away’ “yo’ldan qochmoq” kabi ma’nolarini anglatgan. Keyinchalik esa “forðgewitan” prefiksli fe’li ishlatilgan va uning ma’nosi ‘awaydeparture’ “ketmoq” ma’nosiga to’g’ri kelgan. Bundan tashqari qadimgi ingliz tilida ishlatilgan “gewitan” fe’lining hozirgi zamon preterit shakli “gewāt” aniq bir fe’lni ifodalash uchun prefix yoki predloglardan foydalanilmagan holda ishlatilgan. “gewāt” fe’lining kamdan kam holda ishlatilishi “o’lmoq” kabi ma’nolarga ega bo’lgan (5 a misoliga qarang). Yuqorida keltirilgan misollarda luga’tda bir qancha o’zgarishlar ro’y berishida muhim rol o’ynadi. Leksikograflar “depart” ya’ni ketish so’zidan zamonaviy ingliz tilidagi ya’ni “vafot etmoq” so’zini lug’atda yaratishdi. Aniq bir harakatni ifodalash maqsadida “gewāt” fe’li yo’nalish harakat ma’nosida ishlatilgan (6 c misoliga qarang).

5 misol:

a) ac traianus gewat on þæm ilcan geare.

b) Ða wæs æfter noht monegum gearum æfter his onweggewitenesse of Breotone, þætte Wine wæs adrifen from þæm ilcan <cyninge> of his biscopseðle. Ða gewat he to Wulfhere Mercna cyninge; ond mid feo gebohte æt him þæt biscopseðl æt Lundenceastre.

c) Ne con ic noht singan; & ic forþon of þeossom gebeorscipe ut eode, & hider gewat, forþon ic naht singan ne cuðe.

5 misoldagi b va c bandlarida “gewitan” fe’li boshlang’ich yo’nalish harakat ma’nosini ifodalab kelmagan. Chunki ikkala misolda ham oldingi fe’l “chiqish” ma’nosiga ishora qilib kelgan. Bunda “wæs adrifen of his biscopseðle” “was driven from his bishop’s see” hamda “of þeossom gebeorscipe ut eode” “went out of this feast” “bayramdan chiqib ketmoq” makon ikkala holda ham “gewat” fe’liga hamrohlik qilgan va harakat maqsadini ifodalagan. Yana bir muhim dalil shundaki “gewitan” fe’li infinitiv bilan birga ishlatilgan.

Xulosa

Maqolamizda keltirilgan ma’lumotlarga tayanib, shunday xulosaga kelindiki qadimgi ingliz tilida ishlatilgan yo’nlish harakat fe’llari o’zlashtirilgan fe’llar bo’lib ularning ko’pchiligi sof yo’nalish harakat fe’llari emasligi aniqlandi. Qadimgi ingliz tilida ishlatilgan “(ge)witan, (for)lætan” yo’nalish harakat fe’llari qo’shimcha ma’nolarga ega bo’lgan. Demak qadimgi ingliz tili “feor” bilan shakllangan fe’llar “far” ya’ni “uzoq” ma’nosini ifodalagan. Qadimki ingliz tilida ishlatilgan “scipian” fe’li “kuch” ma’nosida ham ishlatilgan. Bunda ushbu fe’l shaklning harakatiga ta’sir etgan ya’ni harakatni kuchaytirgan yoki susaytirgan. Qadimgi ingliz tili “forlætan” fe’li ko’proq makonga ta’sir etgan bunda semantik

hodisa ro'y bergan. Ko'rinib turibdiki hech bir yo'nalish harakat fe'llari sof harakat fe'llari sifatida ishlatilmagan.

Adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Talmy, L. *Semantics and the syntax of motion // Syntax and semantics vol. 4. New York., 1975. – P 195-205;*
- [2]. Levinson, S. *Space in language and cognition: Explorations in cognitive diversity. Cambridge University Press., 2003. – P 167-175;*
- [3]. Durkin, P. *Borrowed words: A history of loanwords in English. Oxford University Press., 2014. – P 274-357;*
- [4]. Fanego, T. *Motion events in English: The emergence and diachrony of manner salience from Old English to Late Modern English. Folia Linguistica Historica., 2012. – P 29– 85.*